

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 952,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 283,2 mln. AQSh dollariga yoki 42,3 % ga o‘sdi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

TSA	SALDO
2022- y.: <u>952,5</u>	2022- y.: <u>-524,1</u>
(2021- y.: <u>669,3</u>)	(2021- y.: <u>-286,1</u>)
O‘sish sur’ati: <u>142,3 %</u>	

EKSPORT

2022- y.: **214,2**
(2021- y.: **191,6**)
O‘sish sur’ati: **111,8 %**
Ulushi: **22,5 %**

Tovarlar: **212,3**
Xizmatlar: **1,9**

IMPORT

2022- y.: **738,3** (2021- y.: **477,7**)
O‘sish sur’ati: **154,5 %** Ulushi: **77,5 %**
Tovarlar: **705,2** Xizmatlar: **33,1**




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan bирgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalgalash oshiriladi.

Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori

ulushga ega bo'lgan davlatlar

(2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)


TSAda eksport hajmi 214,2 mln. AQSh dollariga (11,8 % ga o'sdi) va import hajmi 738,3 mln. AQSh dollariga (54,5 % ga o'sdi) yetdi. Hisobot davrida – 524,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Afg‘oniston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘sni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Shvetsariya, Hindiston, Chexiya, Italiya va Braziliya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**20 ta yirik hamkor-davlatlar ichida 4 ta faol tashqi savdo
balansi kuzatilgan davlatlar**
(2022- yil yanvar-mart)



Andijon viloyati jahoning 62 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasi (44,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (22,7 %), %), Qirg‘iz Respublikasi (8,6 %), Rossiya Federatsiyasi (6,2 %) va Qozog‘istonda (6,0 %) qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to‘rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg‘iz Respublikasi (69,4 mln. AQSH dollar), Qozog‘iston (54,8 mln. AQSH dollar), Ozarbayjon (3,1 mln. AQSH dollar) hamda Afg‘oniston (3,3 mln. AQSH dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.


**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.
 Koreya Respublikasi	360,5	297,6	421,4
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,3
<i>Import</i>	360,4	297,5	421,1
 Xitoy Xalq Respublikasi	68,0	92,6	216,0
<i>Eksport</i>	17,7	23,5	30,6
<i>Import</i>	50,3	69,1	185,4
 Qирг'из Respublikasi	49,1	63,2	81,8
<i>Eksport</i>	47,0	53,7	75,6
<i>Import</i>	2,1	9,5	6,2
 Rossiya Federatsiyasi	56,2	36,7	59,5
<i>Eksport</i>	12,8	13,6	24,3
<i>Import</i>	43,4	23,1	35,2
 Qozog'iston	35,4	88,7	57,0
<i>Eksport</i>	31,5	86,6	55,9
<i>Import</i>	3,9	2,1	1,1
 Turkiya	18,9	21,7	26,0
<i>Eksport</i>	2,9	5,3	11,7
<i>Import</i>	16,0	16,4	14,3
 Shvetsariya	0,2	0,4	15,1
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	0,4	15,1
 AQSH	4,0	22,9	9,5
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,0
<i>Import</i>	3,9	22,8	9,5
 Hindiston	2,8	3,2	8,1
<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,2
<i>Import</i>	2,7	3,2	7,9
 Chexiya	3,4	2,1	6,2
<i>Eksport</i>	0,1	0,0	-
<i>Import</i>	3,3	2,1	6,2

	Davlatlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.
	Italiya	3,0	3,0	6,1
	<i>Eksport</i>	0,3	0,4	1,5
	<i>Import</i>	2,7	2,6	4,6
	Braziliya	4,4	3,8	5,7
	<i>Eksport</i>	-	-	0,1
	<i>Import</i>	4,4	3,8	5,6
	Germaniya	4,2	1,5	4,1
	<i>Eksport</i>	-	0,2	0,4
	<i>Import</i>	4,2	1,3	3,7
	Ozarbayjon	5,0	1,5	3,5
	<i>Eksport</i>	4,8	1,3	3,3
	<i>Import</i>	0,2	0,2	0,2
	Tailand	23,8	8,2	3,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	23,8	8,2	3,5
	Afg'oniston	0,5	0,1	3,3
	<i>Eksport</i>	0,2	0,1	3,3
	<i>Import</i>	0,3	0,0	0,0
	Eron Islom Respublikasi	1,2	1,8	3,2
	<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,4
	<i>Import</i>	0,9	1,6	2,8
	Polsha	1,8	3,0	2,2
	<i>Eksport</i>	0,2	0,5	0,2
	<i>Import</i>	1,6	2,5	2,0
	Slovakiya	1,4	1,6	2,0
	<i>Eksport</i>	-	-	0,0
	<i>Import</i>	1,4	1,6	2,0
	Belarus Respublikasi	1,1	1,0	1,8
	<i>Eksport</i>	1,1	0,3	0,3
	<i>Import</i>	0,0	0,7	1,5

Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi

(yanvar-mart 2022- yil)*




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka 66,9 % ulush bilan 637,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyisi ulushni Buloqboshi 0,4 % ulush bilan 4,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining beshdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda biroz o‘zgardi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 21,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilga nisbatan 7,7 % ga kamaygan.

**Andijon viloyatining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va
boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA 2022- yilning yanvar-mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan 57,8 % ga o‘sdi va jami TSAAdagi ulushi 78,2 % ni tashkil etdi.


ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-mart)

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyori soni 259 tani tashkil etib, ular tomonidan 214,2 mln. AQSh dollarri (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021 - yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST bo'yicha eksport tarkibi

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (37,4 %), turli xil tayyor mahsulotlar (30,3 %), mashinalar va transport asbob – uskunalar (26,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (2,8 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (1,3 %), nooziq-ovqat xomashyo (0,6 %) va kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (0,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyati XSST bo‘yicha eksport tarkibi

(yanvar-mart)

XSST tarkibi	Ming AQSh dollarri			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	214 235,4	162 062,4	52 173,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6 016,1	4 612,8	1 403,3	2,8	2,9	2,7
Ichimlik va tamaki	16,1	16,1	-	-	-	-
Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari	1 351,2	155,8	1 195,3	0,6	0,1	2,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	2 722,8	0,6	2 722,2	1,3	-	5,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	684,7	684,6	0,2	0,3	0,4	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	80 150,3	35 556,4	44 593,9	37,4	21,9	85,5
Mashinalar va transport asbob uskunalar	56 613,1	56 191,0	422,1	26,4	34,7	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	64 793,4	63 534,8	1 258,6	30,3	39,2	2,4
Xizmatlar	1 887,7	1 310,3	577,4	0,9	0,8	1,1

XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi


(2022- yil yanvar-mart)

XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dolları	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	5 183,4	126,0
Sut mahsulotlari va kush tuxumlari	452,1	4,4 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	280,9	92,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	57,5	2,4 b.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	16,2	23,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 184,3	40,0
Moy olinadiga uruglar va mevalar	84,3	11,0
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	48,9	14,1
56- bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	33,5	4,2 b.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	2 722,8	346,8 b.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar		
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan	0,01	18,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar		
Birlamchi shaklda bo‘lмаган plastmassalar	438,3	8,4 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	123,0	95,2
Noorganik kimyo moddalari	73,4	147,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	26,2	2,6 b.
Sanoat tovarlari		
To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	69 758,2	164,9
Metalldan tayyorlangan buyumlar	5 207,3	2,6 b.
Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qogo‘z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3 388,4	214,0 b.
Ruda bo‘lмаган qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	946,8	2,2 b.


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollarri	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Avtomobillar	34 630,5	40,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	18 069,7	318,6 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoq qismlari	3 066,0	75,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	531,4	2,3 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	59 377,8	136,2
Poyabzal	2 745,3	2,2 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	1 059,1	4,8 b.
Har xil tayyor buyumlar	771,3	97,1

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi
(yanvar-mart mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariiga 162,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 75,6 foizini tashkil etdi.



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2022- yil yanvar-mart, % da)



2022- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg'iz Respublikasi eksport umumiy hajmining (35,3 %), Qozog'iston (26,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,3 %), Rossiya Federatsiyasi (11,3 %), Turkiya (5,5 %), Ozarbayjon (1,5 %) va Afg'oniston (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 95,5 % ni tashkil etmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 5,5 mln. AQSh dollarari qiymatli 16,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,5 mln. AQSh dollarida o'sish kuzatilib, 11,4 % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 4,3 mln. AQSh dollariga teng 15,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 0,6 mln. AQSh dollarari qiymatidagi 0,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(2022- yil yanvar-mart)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Pokiston, Qozog'iston hamda Polsha davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavot mahsulotlari eksportining jami eksport hajmidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

Meva va sabzavot mahsulotlarinin eksport geografiyasi

(2022- yil yanvar-mart)

Davlatlar	tonna	ming AQSH dollarri	ulushi, % da *
Qirg'iz Respublikasi	13 380,3	2 659,9	51,3
Rossiya Federatsiyasi	1 678,8	1 545,4	29,8
Pokiston	149,6	565,5	10,9
Qozog'iston	841,7	160,8	3,1
Polsha	61,6	76,2	1,5
Ozarbayjon	42,7	54,5	1,1
Avstriya	32,1	43,2	0,8
Afg'oniston	49,8	34,9	0,7
Belarus Respublikasi	21,8	21,4	0,4
Moldova Respublikasi	16,6	9,2	0,2
Boshqalar	25,9	12,4	0,2

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 51,3 %), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 baravar ko'pdır.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom- ashyosi o'rniiga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalgalashirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, 2022- yilning yanvar-mart oylarida 129,7 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalgalashirilib, umumiy eksportning 60,5 foizini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 50,6 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (45,6 %), paxtadan yigirilgan ip (39,4 %) asosiy ulushni egallagan yil boshidan 207 turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 22 ta davlatiga eksport qilindi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari)

	2021- y.	2022- y.
Jami:	86,1	129,7
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	43,6	59,2
Paxtadan yigirilgan ip	28,2	51,1
Naqshli mato	9,2	9,0
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	2,3	2,2
Ipak va ipak mahsulotlari	0,4	2,5
Paxtadan gazlamalar	1,1	1,1
Paxta mahsulotlari	1,0	1,3
Gilamlar	0,0	1,0
Boshqalar	0,3	2,3

Andijon viloyatining importi


(2022- yil yanvar-mart)

2022- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 738,3 mln. AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 154,5 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob - uskunalar (63,7 %), sanoat tovarlari (20,2 %), turli xil tayyor buyumlar (5,6 %), xizmatlar (4,5 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (4,5 %) va boshqalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

XSST bo‘yicha import tarkibi

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 346,9 mln. AQSh dollariga ortdi va 705,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 33,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

Andijon viloyati XSST bo‘yicha import tarkibi

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollarri		O‘sish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021-y.	2022- y.	2021- y.	2022 –y.	2021- y.	2022- y.
Jami import	477,7	738,3	88,7	154,5	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,2	3,9	122,5	92,1	0,9	0,5
Ichimlik va tamaki	-	0,1	-	-	-	-
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,0	4,9	89,4	165,3	0,6	0,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	3,0	1,9	172,7	64,1	0,6	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,4	-	55,9	0,5	0,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	18,3	33,4	88,4	182,3	3,8	4,5
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	69,8	149,3	72,3	2,1 b.	14,6	20,2
Mashinalar va transport asbob uskunalar	237,3	470,6	66,8	198,3	49,7	63,7
Turli xil tayyor buyumlar	22,3	41,1	84,6	184,8	4,7	5,6
Xizmatlar	119,4	33,1	3,9 b.	27,7	25,0	4,5

XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi
(2022- yil yanvar-mart)

XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dollarri	2021- yilning mos dabriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	1 096,7	52,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	798,0	17,3 b.
Sabzavotlar va mevalar	641,9	127,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan maxsulotlar	636,8	3,3 b.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	71,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 821,6	7,7 b.
Tabiiy kauchuk (sun’iy va regeneratsiya qilingan rezina)	1 112,3	136,2
Probka va yog‘och-taxtalar	1 038,3	106,6
56- bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xom-ashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	516,4	2,1 b.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar		
Ko‘mir, koks va briketlar	1 352,0	69,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash metallar	567,2	54,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar		
O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2,5	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	12 680,5	141,2
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	6 551,4	2,4 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 953,1	196,0
Organik kimyo moddalari	3 537,0	2,6 b.


XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi

(2022- yil yanvar-mart)

XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dollarri	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Metalldan tayyorlangan buyumlar	54 154,7	3,3 b.
Cho‘yan va po‘lat	37 153,7	2,0 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	34 121,8	2,1 b.
To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	14 654,9	170,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	348 744,7	2,1 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	53 778,6	184,6
Sanoat uchun maxsus bo‘limgan mashinalar va ularning detallari	34 513,7	170,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	17 650,1	172,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	15 711,7	2,4 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	12 556,5	178,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel	10 900,6	175,9
Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	721,1	37,2

2022-yil yanvar-mart natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 2021-yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga pasaygani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga pasayish qayd etildi va ularning jami importdagи ulushi 2022- yil yanvar-mart natijalariga ko‘ra 6,2 % ni tashkil etdi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi
 (yanvar-mart, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 56 ta davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, Shvetsariya, Turkiya, AQSh va Hindiston) jami importning 93,3 % ulushini tashkil qildi, bu 688,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davatlarning ulushi
 (2022- yil yanvar-mart, % da)



Mashinalar va transport asbob-uskunalarini importi

2022- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob - uskunalarini hajmi 470,5 million AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,3 foizga o‘sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 63,7 % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalarini asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma’lumotdan ko‘rish mumkin.

Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar (2022- yil yanvar-mart)




2022- yil yanvar-mart oylarida mashina va transport asbob-uskunalarini importi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 233,2 mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni O‘zbekiston Respublikasiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi - 294,7 mln. AQSH dollari (62,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi - 114,9 mln. AQSH dollari (24,4 %) va Shvetsariya - 14,9 mln. AQSH dollari (3,2 %) kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi.

Sanoat tovarlari importi

2022- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 149,3 million AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 b. ga o‘sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 20,2 % ga yetdi.

Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar (2022- yil yanvar-mart)



Sanoat tovarlari importi asosan metallardan tayyorlangan buyumlar (54,2 mln. AQSH dollari), cho‘yan va po‘lat (37,2 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (34,1 mln. AQSH dollari), to‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar (14,7 mln. AQSH dollari), ruda bo‘lмаган qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (4,5 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.